

XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDAGI DAVR ADABIY TILNING UMUMIY TAVSIFI**Masharipov Mansurbek Masharipovich,***O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi Urganch filiali direktor o‘rinbosari, dotsent, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)**E.mail: mansurbekmasharipov@urgiu.uz**<https://orcid.org/0009-0001-6582-6239>*

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek adabiy tilining XIX asr oxiri XX boshlaridagi holati tavsiflangan. Davr adabiy tilining asosiy lisoniy xususiyatlari yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarga munosabat bildirilgan. Adabiy tilning ijtimoiy tarmoq va ko‘rinishlari haqidagi qarashlar ilmiy umumlashtirilgan.

Kalit so‘zlar: lisoniy me‘yor, yagona turkiy til, purizm, jargon, ekspressivlik, struktur-grammatik xususiyatlar, tayanch dialekt, singarmonazim, ijtimoiy-siyosiy terminologiya.

Аннотация. В статье описано состояние узбекского литературного языка в конце XIX начале XX веков. Были прокомментированы проведенные исследования основных языковых особенностей литературного языка того периода. Научно обобщены взгляды на социальные сети и проявления литературного языка.

Ключевые слова: языковая норма, единый турецкий язык, пуризм, жаргон, экспрессивность, структурно-грамматические особенности, базовый диалект, сингармонизм, социально-политическая терминология.

Abstract. This article describes the state of the Uzbek literary language in the late 19th and early 20th centuries. It discusses research conducted on the main linguistic features of the literary language of this period. The article also provides a scholarly overview of views regarding the social layers and forms of the literary language.

Keywords: linguistic norm, unified Turkic language, purism, jargon, expressiveness, structural-grammatical features, basic dialect, vowel harmony, socio-political terminology.

Kirish. O‘zbek tili tarixining XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlari davri milliy tilimiz tadrijiy taraqqiyotida muhim bir davrni tashkil etadi. Mazkur davr milliy tili va uning asosini tashkil etuvchi davr adabiy tilining lisoniy xususiyatlari, uning uslubiy tarmoq va ko‘rinishlari o‘zbek tilshunosligida mukammal o‘rganilgan deb aytolmaymiz. Istiqloлга qadar bu davrga tegishli ilmiy-adabiy, tarixiy manbalar sobiq ittifoq mafkurasi tazyiqi ostida “yopiq eshiklar” ortida saqlandi, ularni tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarixshunoslik yo‘nalishlarida o‘rganishga va xolisona ilmiy baho berishga imkon berilmadi. Chunki mazkur davr tarix sahnasida milliy ozodlik harakati namoyandalari sifatida e‘tirof etilgan ma‘rifatparvar jadidlar faoliyat olib borgan edilar. Mazkur davr ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma‘rifiy hayotida muhim rol o‘ynagan, o‘z faoliyatlarida hurlik, ozodlik, milliy-ma‘naviy o‘zlik masalalarini targ‘ib va tashviq etib yashagan bu vatandoshlarimiz yaratgan ilmiy-adabiy merosni keng tadqiq etish sho‘rolar davrining til siyosatiga to‘g‘ri kelmas edi.

XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlaridagi davr adabiy tili lisoniy xususiyatlariga ko‘ra mumtoz adabiy til normalaridan uzoqlashish, xalq jonli tiliga yaqinlashish va shu asosda hozirgi o‘zbek adabiy tili me‘yorlarining shakllanish jarayoni holati bilan xarakterlanadi. Mazkur davr adabiy tili holati haqida manbalarda ayrim fikrlar

aytilgan: “XIV – XV asrdagi ko‘tarinki uslubga ega bo‘lgan yozuv tili keng ommaga tushunarli deyish qiyin, biroq uning asosini xalq tili tashkil qilganligini e‘tirof qilmaslik ham mumkin emas. Shu asr va undan keyingi o‘zbek adabiy tiliga real voqelikdan uzoqlashish, tumtaroqli uslub, “sanoiy lafziya” boshqa tillarga, ayniqsa, arab va fors tillariga xos leksikaning favqulodda ko‘p qo‘llangani bo‘lsa, XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi adabiy tilda aytib o‘tilgan an‘anadan ma‘lum darajada uzoqlashish sezilib turadi” [1; 16].

Adabiyotlar tahlili va metod. Demak, anglashiladiki, bu davr o‘zbek adabiy tili ayrim ko‘rinishlari bilan mumtoz adabiy tilimizning davomi bo‘lsa, ba‘zi xususiyatlari bilan hozirgi o‘zbek adabiy tiliga yaqinlashadi, uning boshlanish nuqtasini o‘zida aks ettiradi. Bu xususiyatlar asosida eski o‘zbek adabiy tili bilan hozirgi o‘zbek adabiy tilini tutashtiruvchi ko‘prik vazifasini ham bajargan.

Mazkur davr o‘zbek tilining leksikasi va morfologiyasi yuzasidan bir qator monografik tadqiqotlar olib borilgan. Mazkur davr adabiy tili yuzasidan birinchi bo‘lib ilmiy kuzatishlar olib borgan olim professor A.K.Borovkovdir. U 1905 – 1917-yillar oralig‘idagi o‘zbek adabiy tilining xususiyatlarini o‘sha davrda o‘zbek tilida nashr qilingan matbuot tili asosida tahlil qilar ekan [2;104], til sohasida hukmron bo‘lgan turli qarashlarga ham izoh beradi. Tadqiqotchi o‘z kuzatishlarida o‘sha davrda turli siyosiy, lingvistik, milliy-ma‘rifiy oqimlar tomonidan *yagona turkiy til* yaratishga oid qarashlar kuchli bo‘lganligini, ularda: a) usmonli turk, tatar, ozarbayjon tillaridan biri umumturkiy adabiy til bo‘lishi kerak, degan fikrlar; b) usmonli turk tili turkiy xalqlar uchun umumadabiy til bo‘la oladi, degan fikrlar; g) chig‘atoy tili turkiy xalqlarning yagona adabiy tili bo‘lsin, degan fikr; d) yangi tatar adabiy tili usmonli turk tili bilan boyitilsa, umumadabiy til bo‘la oladi, degan g‘oya; ye) tatar va o‘zbek tillarini birlashtirish lozim, degan qarashlar ilgari surilganligini ta‘kidlaydi. Muallif matbuot tilidagi turli xususiyatlarni, gazetalar tilida g‘arbiy turk (ozarbayjon), usmonli turk, tatar elementlari (so‘z va grammatik shakllar, ba‘zi sintaktik birliklar), shuningdek, arab va fors tiliga oid so‘zlarni qo‘llash kuchli bo‘lganligini aniqlagan va ularni tahlil qilgan holda quyidagi xulosaga kelgan: “Bu davrdagi matbuot tili fevral revolyutsiyasigacha bo‘lgan davrdagi kabi o‘zbek xalq tili emas edi” [2;48].

Tilshunos S.Normamatov o‘z tadqiqotida mazkur davr adabiy tili yuzasidan bildirilgan fikrlarni tahlil qilar ekan, yuqoridagi qarashlarga o‘z munosabatini quyidagicha ifodalaydi: “A.K.Borovkov fikr yuritilayotgan davrdagi o‘zbek matbuoti tilini chuqur tahlil qilar ekan, bu tilni “jargon” deb ataydi. O‘rganilayotgan gazetalar tilida jargon xarakteridagi ba‘zi maqolalar mavjud bo‘lganligini inkor qilmagan holda, uning fikrida munozarali o‘rinlar mavjudligini ham ta‘kidlash lozim bo‘ladi. Bular quyidagilar: birinchidan, fikr yuritilayotgan davr adabiy til holatiga birgina gazeta tili (ilmiy-publitsistik uslub) materiali asosida baho berish o‘rinli emas. Chunki bu davrda nashr qilingan ko‘pgina gazetalar tili izlanish, shakllanish bosqichida edi. Adabiy tilda

publitsistik uslub hali shakllanib ulgurmagan edi. Ikkinchidan, A.K.Borovkov asarining sarlavhasiga qaraganda, u 1905 – 1917-yillardagi o‘zbek adabiy tilining holatini o‘rganmoqda. Adabiy til esa ko‘pqirrali, ko‘p uslubli tildir. Unda publitsistik uslubdan tashqari, badiiy adabiyot tili, ilmiy asarlar tili, qisman so‘zlashuv uslubi tili, rasmiy uslub tili va boshqa yordamchi uslublar tili o‘z ifodasini topgan edi. Binobarin, adabiy tilning holatiga uning barcha uslublari tilidan kelib chiqqan holda baho berish kerak. Uchinchidan, o‘sha davrdagi o‘zbek adabiy tilining tarkibiy qismini mumtoz o‘zbek adabiyoti tili va yuzaga kelayotgan yangi badiiy adabiyot tili (masalan, jadidlar yaratayotgan asarlar) tashkil etar edi. Bu adabiyot Abdulla Avloniy, So‘fizoda, Tavallo, Fitrat, qolaversa, Furqat, Muqimiy, Hamza kabi demokratik yozuvchilar qalamiga mansub edi. O‘zbek adabiy tilining rivoji haqida gap borganda, ular yaratgan asarlar tilini chetlab o‘tish mumkin emas. To‘rtinchidan, butun bir matbuot tilini “jargon” deb yuritishni ham o‘ylab ko‘rish lozim bo‘ladi. Ma’lumki, milliy tilning ijtimoiy tarmoqlanishida “jargon” tor doiradagi ma’lum ijtimoiy guruhning tili hisoblanib, ko‘p holda “yashirin”, o‘sha guruh a‘zolariga tushunarli, uning so‘zlari, so‘z ma’nolarida, fonetik-grammatik tuzilishida sun’iy ijod qilingan vositalar mavjud bo‘lgan tor doira tili tushuniladi. Shunday ekan, butun bir millat, xalq o‘qishi uchun mo‘ljallangan gazeta tili va uslubini “jargon” deb baholash o‘rinsizdir” [3;30]. Shuningdek, muallif XX asr boshlari o‘zbek adabiy tili holati yuzasidan prof. V.V.Reshetovning mulohazalari to‘g‘ri ekanligini ta’kidlab, shunday yozadi: “V.V.Reshetov A.K.Borovkovning fikr yuritilayotgan davrdagi matbuot tili “jargon” edi, degan fikriga qo‘shiladi. Chunki uning yozishicha, Samarqand, Farg‘ona, Toshkentda chiqarilgan gazetalarda dialektizm va turkiy so‘zlar haddan ortiqdir. Biroq “O‘zbek adabiy tili” degan tushunchani talqin qilishda V.V.Reshetov, A.K.Borovkovdan farq qiladi. U bu ibora tagida XX asr boshlarida ijod qilgan Furqat, Muqimiy, Hamza, Zavqiy asarlarini ham hisobga oladi” [3;30].

Muhokama. Manbalarda aytilishicha, bu davrda yaratilgan badiiy, ilmiy, publitsistik asarlarning tili va uslubida bir xillik, ya’ni adabiy norma talablariga e’tibor sezilmaydi. Bunday asarlar lug‘aviy tarkibida o‘z va o‘zlashma qatlam birliklarining qo‘llanishi jihatdan ham, morfologik kategorial birliklarning, sintaktik shakllarning voqelanishi jihatdan ham, uslubiy vositalarning qo‘llanishi jihatdan ham biri ikkinchisidan farqlanadi. Bu xususda fikr bildirgan professor Faxri Kamol: “Oktabr inqilobiga qadar matbuot tilida umumiylik, birlik bo‘lmagan” [4;12], – degan asosli fikrni ilgari suradi. Tilshunos olim F.Kamol XX asr boshlaridagi o‘zbek adabiy tiliga baho berishda o‘sha davrda yaratilgan badiiy asarlar tili yuzasidan ham kuzatishlar olib boradi. Davr adabiy tilidagi me’yoriy murakkabliklarning asosiy sababini mumtoz adabiy til normalaridan chekinish va badiiy ijodda jonli xalq tiliga yaqinlashish jarayoni boshlangani bilan izohlaydi: “Ana shunday murakkab sharoitda Muqimiy, Furqat kabi demokrat shoirlarimiz an’analarining davomchilari bo‘lgan H.H.Niyoziy, S.Ayniy, A.Avloniy kabi ziyolilar an’anaviy adabiy

tildan bahramand bo'lganlari holda, jonli xalq tilining eng go'zal elementlaridan foydalanganib, yuksak badiiy ijod namunalari yaratdilar" [5;13].

Tilshunos olim davr adabiy tili shakllanishidagi bunday lingvistik jarayonning tasodifiy emasligini aytib, yaratilgan badiiy asarlar tilidagi bu o'zgarishlarning sabab va ildizlarini badiiy ijoddagi janrlar ko'lamining ortishi, yaratilgan asar mualliflarining g'oya va intilishlaridagi o'zgarish va yangilanishlar bilan ham bog'laydi va o'z fikrlarini Hamza Hamkimzoda Niyoziy ijodi misolida asoslashga harakat qiladi: "H.H.Niyoziyning xalq tilining nodir boylıklaridan foydalanishi, eski an'anani yengib badiiy ijodda yangilik yaratishga intilishi, jonli tilga yaqin so'z va grammatik formalardan barakali foydalanishi tasodifiy hol bo'lmay, balki uning ruhiy va g'oyaviy evolyutsiyasining mantiqiy rivoji hamdir" [5;15].

Hamza asarlarining davr adabiy tili shakllanishidagi ahamiyati va o'rni tilshunos B.Turdaliyev [6;17] tomonidan ham ilmiy o'rganilgan. Tadqiqotchi H.H.Niyoziy dramatik asarlarining lisoniy xususiyatlari bo'yicha kuzatishlar olib borar ekan, adib yaratgan badiiy asarlar tilida qo'llangan leksik-morfologik birliklarni, grammatik shakllarni hozirgi o'zbek adabiy tiliga qiyosan tahlilga tortadi. Tahlillari asosida ayrim bog'lovchi, yuklama, modal va undovlarning, hozirgi zamon fe'lini yasovchi *-yap*, *-yotir* kabi grammatik formalarning mazkur davrda ilk bor Hamza asarlarida uchrashini, grammatik formalar esa hozirgi o'zbek adabiy tilidagi shakllaridan 0,19 % gagina farqlanishini aytadi. Bu bilan yangi o'zbek adabiy tilining shakllanishida, funksional uslublarning takomillashishida, o'zbek tilining milliy adabiy til darajasiga ko'tarilishida Hamza asarlari tilining ahamiyatli ekanligini qayd etadi.

Umuman olganda, XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlaridagi sotsiolingvistik jarayon, ijtimoiy-lisoniy vaziyat davr adabiy tili va uning funksional usublari shakllanishidagi lingvistik omillarning sabab va ildizlarini topish va anglash imkonini beradi. Bu jihatdan mustaqillikdan keyingi yillarda XX asrning 20 – 30-yillaridagi lisoniy jarayon, jadid adiblari tomonidan yaratilgan asarlarning davr adabiy tilining shakllanishi va takomilidagi ahamiyatini belgilashga doir masalalar yuzasidan olib borilgan monografik tadqiqotlar ahamiyatli sanaladi.

Natijalar. Darhaqiqat, "adabiy til va uning uslubini soddalashtirish, so'zlashuv tilidagi boy imkoniyatlarni o'rganib, ularni adabiy tilga singdirish jarayoni XX asrning birinchi choragida, ayniqsa, 20-yillarda keng ko'lamda olib borildi" [7;216]. Mazkur lisoniy vaziyat bir necha tadqiqotlarda o'rganildi, tahlil qilindi, bu yuzasidan kerakli xulosalar chiqarildi.

Shakllanayotgan adabiy tilda puristik harakatlar ta'siri natijasida tilda sun'iylik vujudga kelayotgan edi. Bu davrda yuzaga kelgan "purizm hodisasi" haqida M.Qurbonova quyidagi fikrlarni bildiradi: "... Purizm muayyan tarixiy sharoitda har bir tilda vujudga kelishi mumkin. Aniqroq qilib aytsak, biror tilning tovushlar tizimida, leksik tarkibida, sintaktik qurilishida begona tillarning unsurlari ko'payib ketishi, ya'ni boshqa tillarning

tazyiqi paydo bo'lishi mumkin. Ana shunday vaziyatda til tozaligini, milliyligini saqlash uchun harakat, ya'ni purizm vujudga keladi. XX asr boshlarida o'zbek tilida ana shunday hodisa – holat yuz berdi. Bu davrdagi o'zbek tilida arabcha, forsha so'zlar bilan birga, usmonli turk va tatar tillarining unsurlari katta foizni tashkil qilardi" [8;26].

XX asrning 20 – 30-yillarida yaratilgan o'zbek badiiy adabiyoti tili ilk bor M.Yo'ldoshev tadqiqotida obyekt sifatida tanlandi. Tadqiqotchi Abdulhamid Cho'lponning "Kecha va kunduz" romani tili misolida olib borgan ilmiy kuzatishlarida [9;26] asar tilining XX asr boshlari davr adabiy tilining shakllanishidagi ahamiyatini ko'rsatishga harakat qildi. Olib borgan tahlillari asosida o'z fikrlarini "milliy adabiyotning takomiliga, eng avvalo, badiiy asar tilini soddalashtirish orqali erishish mumkin deb hisoblagan Cho'lpon o'zbek tilining leksik jihatdan boyishi, grammatik jihatdan sayqallanishi, mukammallashishi, umuman, keng ommaga tushunarli bo'lgan o'zbek adabiy tilini shakllantirishda barakali mehnat qilganligini" ilmiy xulosalaydi [10;4].

Tilshunos olim D.Ne'matova Cho'lpon publitsistik asarlari tili va uslubini o'rganar ekan, 20-yillarda o'zbek adabiy tilida yuz bergan o'zgarishlar dastlab vaqtli matbuot tilida o'z ifodasini topganini ta'kidlaydi. Muallif, XX asr – o'zbek adabiy tilining rivojlanishida o'ziga xos davr bo'lganligini ta'kidlab, bu davrni tilimiz taraqqiyotidagi omillardan kelib chiqqan holda uch asosiy bosqichga ajratadi:

1. XX asr boshlaridan – 1930-yilgacha bo'lgan davr. Bu davrda tilning barcha sathlarida, xususan, fonetik, leksik, sintaktik tuzilishlarida o'ziga xos o'zgarishlar bo'ldi. Bunday o'zgarishlar jamiyatdagi ilg'or kishilar ijodida o'z aksini topdi.

2. XX asr o'rtalaridan – 1940 – 1980-yillargacha bo'lgan davr. Mazkur davrda tilshunoslik empirik bosqichdan nazariy bilish bosqichiga ko'tarildi. Barcha sathlar rivojlandi.

3. XX asr oxiri – 1980-yildan 2000-yilgacha bo'lgan davr.

Tadqiqotchi D.Ne'matova Cho'lpon publitsistik asarlari tilidagi me'yoriy murakkabliklarning sababini o'sha davr tili leksik-semantik xususiyatlarini belgilovchi bir qator omillar bilan bog'liq deb biladi va quyidagilarni yozadi:

a) "... adabiy tilimizda an'anaviy ravishda arab-fors tillari ta'siri kuchli bo'lganligi, aksariyat ziyolilarning "eskicha" tahsil ko'rganligi;

b) Turkiston hududida turk - tatar nashrlarining keng tarqalganligi;

d) mustamlaka Turkiston ijtimoiy-madaniy hayotida Chor Rossiyasi, keyinroq SHo'ro ta'sirida yangi o'zgarishlar paydo bo'lganligi;

e) adabiy tilni hali chinakamiga me'yorlashtirib ulgurilmaganligi"[11;8]

Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanining lingvistik tadqiqi bo'yicha izlanish olib borgan L.Jalolovning qayd etishicha, XX asrning 20 – 30-yillari o'zbek milliy adabiy tilining shakllanishi va takomili uchun uchta manba mavjud edi: 1) arabiy va forsiy so'zlar, izofalar keng qo'llanilgan holda rivojlanib kelayotgan klassik o'zbek tili; 2) usmonli turk, tatar tillari ta'sirida shakllanayotgan o'sha zamonning rasmiy, badiiy-

publitsistik tili; 3) asrlar davomida shakllanib, o'z takomilini topgan, sodda va tushunarli bo'lgan xalq jonli tili. Xalq bilan birga bo'lgan, uning dardini tushunib yetgan o'zbek ziyolilari uchunchi – eng to'g'ri yo'lni tanladilar [12;3]. L.Jalolova 20 – 30-yillar o'zbek tilining xususiyatlarini, lisoniy belgilarini o'tkinchi hollar deb baholaydi va quyidagi xulosaga keladi: “Har qanday statika dinamikaning uzviy bir halqasidir. Dinamika jarayonida bir holatdan ikkinchi holatga o'tishda oraliq holatlarga yo'l qo'yiladi. Ana shu oraliq holat ikki rivojlanish nuqtasini birlashtirish vazifasini bajaradi va har ikki nuqtaning belgilarini o'zida namoyon qiladi. Bunday holatlar sintetik hodisalarni o'z ichiga oladi va har qanday fanning rivojlanish nuqtasi sanaladi. O'zbek tili tarixiy taraqqiyotida ham 20 – 30-yillar holati eski o'zbek tilidan hozirgi o'zbek tiliga o'tish davridagi oraliq holatni ifodalaydi. Bu davr tilida eski o'zbek tiliga xos belgilarning saqlanishi bilan birga, hozirgi o'zbek adabiy tili me'yorlarining shakllanish jarayoni ham namoyon bo'lgan. Xuddi ana shu jarayon Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar” romanida o'z ifodasini topgan [12;17].

Davr adabiy tili tavsifi masalasida Y.Sayidovning quyidagi fikrlari ham e'tiborga molik: “XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Chor Rossiyasi hukumatining umumruslashtirish madaniy tadbirlari Turkistondagi mavjud ijtimoiy-estetik va badiiy tafakkurni tubdan o'zgartirib yubordi... Nazarda tutilgan davrda o'zbek adabiy tilining lug'at tarkibi rus tili va u orqali yevropa tillaridan o'zlashtirilgan so'zlar hisobiga ancha boyidi. Ruscha-evropacha o'zlashma so'zlar, asosan, barmoq vaznida yozilgan she'rlarda mavjud bo'lib, aruz vaznidagi ijod namunalari bunday so'zlar deyarli uchramaydi” [13;274].

Xulosa. Bu davrda o'zbek adabiy tili va uning tayanch dialektini belgilash borasidagi qarashlar N.Yangiboyeva [14; 46] tadqiqotida keltirilgan. Muallif mazkur davrda adabiy tilning tayanch dialektini belgilashda ikki xil qarash mavjud bo'lganligini, adabiy tilni singarmonizmli shevalar yoki singarmonizmni yo'qotgan shevalar asosida yaratish taklifi matbuotda ilgari surilganligini, shu bilan birga, har ikki holatni ham hisobga olgan holda adabiy tilni yaratish g'oyasi ham taklif qilinganligini ta'kidlaydi. N.Yangiboyeva “Maorif va o'qitg'uvchi” jurnali nashrlaridagi maqolalar orqali davr tili va tilshunosligini o'rganar ekan, jadid adiblarining lotin alifbosiga o'tishning ilmiy va amaliy asoslarini hal etishdagi, o'zbek tilining fonologik tizimini yaratishdagi, o'zbek orfografiyasining tamoyillari va qoidalarini ishlab chiqishdagi faoliyati va tashabbuslarini yuksak baholaydi. Chunonchi, o'zbek dialektologiyasida o'zbek tilining uch lahja asosida tashkil topganligi g'oyasi rus turkolog olimi ye.D.Polivanov tomonidan emas, balki ma'rifatparvar jadid adibi G'ozii Olimga tegishli ekanligini jurnal maqolalaridagi dalillar orqali aniq isbotlaydi.

Mazkur davr adabiy tiliga baho berar ekanmiz, kuzatishlar asosida XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi o'zbek milliy tilining quyidagi ijtimoiy tarmoq va ko'rinishlari mavjudligini ta'kidlash o'rinli bo'ladi: 1) XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi o'zbek badiiy adabiyoti tili; 2) XX asr boshlaridagi yangi shakllanib kelayotgan o'zbek matbuoti

tili; 3) o'sha davr o'zbek ilmiy va ma'rifiy adabiyot tili; 4) o'zbek folklori asarlari tili; 5) o'zbek xalq lahja va shevalari tili. XX asr boshlaridagi o'zbek adabiy tiliga baho berganda o'zbek tilining keltirilgan til hodisalarining xususiyatlari va o'zaro munosabatini hisobga olgan holda ish tutish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Решетов В. Ўзбек тилшунослигидаги баъзи актуал проблемалар ҳақида // “Ўзбек тили ва адабиёти масалалари” журнали – Тошкент, 1958. №1. – Б.16.
2. Боровков А.К. Узбекский литературный язык в период 1905-1917 гг. – Ташкент: Учпедгиздат УзССР, 1940. – С. 104.
3. Нормаматов С. Абдулла Авлоний шеърининг лексикасининг маъновий-услуги хусусиятлари. Филол. фан. номз. дисс. –Тошкент, 2011. – Б. 30.
4. Камол Ф. Ҳозирги замон ўзбек тили. – Тошкент: Фан, 1953. – Б.12.
5. Камол Ф. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг ташкил топиши ва ривожиди Ҳамзанинг роли // “Ҳамза ҳақида мақолалар” тўплами. – Тошкент, 1960. – Б.13.
6. Турдалиев Б. Ҳ.Ҳ.Ниёзий ижодиётининг адабий тилга муносабати ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти журнали. – Тошкент, 1969. 2-сон.
7. Абдурахмонов Ғ. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1973. – Б. 216.
8. Қурбонова М. Фитрат тилшунос. – Тошкент: Университет, 1996. – Б. 26.
9. Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадиий тил маҳорати (“Кеча ва кундуз” романи мисолида). Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – 23 б.
10. Йўлдошев М. Чўлпон сўзининг сирлари. – Тошкент: Маънавият, 2002. – 78 б.
11. Неъматова Д. Чўлпон публицистик асарларининг лингвистик таҳлили: Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. – Тошкент, 2004. – Б. 8.
12. Жалолова Л. Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романининг лингвистик тадқиқи: Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – Б. 3.
13. Сайидов Ё. Жадид бадиий асарлари лексикаси: Филол. фан. д-ри (DSc). диссертацияси. – Тошкент, 2018. – Б.274.
14. Янгибоева Н. XX асрнинг 20-йилларида ўзбек тилшунослиги жараёни (“Маориф ва ўқитғучи” журнали материаллари асосида): Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Қарши, 2019.